

**Toshkent shahrida 2019 yil yanvar-aprel oylari uchun sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasining asosiy ko'rsatkichlari**

**RAQAMLAR:**

**14567,2  
mlrd.so'm**

**Sanoat mahsuloti  
hajmi**

**102,8 %**

**Ishlab chiqarish  
indeksi**

**6924,5 mlrd.so'm**

**Iste'mol tovarlari  
ishlab chiqarish  
hajmi**

**107,7 %**

**O'sish sur'ati**

**47,5 %**

**Iste'mol tovarlarining  
jami sanoat ishlab  
chiqarish hajmidagi  
ulushi**


**65,3 %**

**Sanoat ishlab  
chiqarishda kichik  
biznesning ulushi**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-aprel oylarida Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari tomonidan 14567,2 mlrd.so'mlik sanoat maxsulotlari ishlab chiqarilishiga erishildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 102,8 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat hajmi indeksi 102,6 %, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash 96,6 %, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 109,6 % va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 107,7 % ga o'sishi hisoblanadi

**2019 yilning yanvar-aprel oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, % da**



- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash (indeks - 96,6 % )
- Ishlab chiqaradigan sanoat (indeks - 102,6 % )
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (indeks - 109,6 % )
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (indeks - 107,7%)

### Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Iqtisodiy tarmoqlar kesimida o‘rganilganda, joriy yilning yanvar-aprel oyida Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 956,3 mlrd.so‘mlik maxsulot ishlab chiqarildi va jami ishlab chiqarilgan sanoat maxsulotlarining 6,6 % ni tashkil etgan.


Tog‘-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo‘yicha tabiiy gaz va xom neft qazib olish hajmi o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan 91,6 % va boshqa tog‘-kon sanoati faoliyati esa 104,6 % ga oshganini kuzatish mumkin.

| 2018 yil yanvar-aprelda ishlab chiqarilgan (mln.sum) | Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari  | 2019- yil yanvar-aprelda ishlab chiqarilgan (mln.sum) | 2018-yil yanvar-aprelga nisbatan % da |
|--|--|---|---------------------------------------|
| 839315,5   | <b>Tabiiy gaz va xom neft qazib olish</b><br> | 901630,5  | 91,6                                  |
| 44403,0  | <b>Boshqa tog‘-kon sanoati</b><br>            | 49438,6   | 104,6                                 |

**Ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoati**

2019 yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqaradigan maxsulotlar hajmi 12245,4 mlrd.so‘mni va o‘tgan yilga nisbatan 102,6 % o‘sish sur’atini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog‘ining ulushi 4,7 % ni, o‘rta-yuqori texnologiyali – 24,1 %, o‘rta-quyi texnologiyali – 35,8 %, quyi texnologiyali – 35,4 % ni tashkil etdi.

**2019 yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi**

O‘z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan boshqa guruhlarga kiritilmagan mashina va asbob uskunalar 25,6 % ga, mashina va asbob uskunalarni ta’mirlash va o‘rnatish 19,6 % ga kamaygan bo‘lsa, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 26,3% ga, ichimliklar ishlab chiqarish 19,9 % ga, tamaki mahsulotlari 26,6 % ga oshganligini kuzatamiz.

| <b>2018 yil<br/>yanvar-aprelda<br/>ishlab chiqarilgan<br/>(mln.sum)</b> | <b>Ishlab chiqaradigan<br/>(qayta ishlash) sanoati</b>   | <b>2019 yil yanvar-<br/>aprel- ishlab<br/>chiqarilgan<br/>(mln.sum)</b> | <b>2018-yil<br/>yanvar-<br/>aprelga<br/>nisbatan<br/>%da</b> |
|---|--|---|--|
| 1149690,1   | <b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b><br>       | 1281791,0   | 103,0  |
| 648189,1  | <b>Ichimliklar ishlab chiqarish</b><br> | 841537,6  | 119,9  |
| 25974,5   | <b>Tamaki mahsulotlari</b><br>          | 31712,1   | 126,6  |

|   |                 |                 |              |
|---|-----------------|-----------------|--------------|
| <p><b>Tekstil mahsulotlari</b></p>                                        | <p>568929,0</p> | <p>660889,8</p> | <p>96,7</p>  |
| <p><b>Farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari</b></p>                 | <p>275102,3</p> | <p>349344,4</p> | <p>106,7</p> |
| <p><b>Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar</b></p>  | <p>60426,0</p>  | <p>81978,4</p>  | <p>126,3</p> |

### **Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash.**

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 1025,0 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 7,0 % ni ) tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-aprel oylarida elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari maxsulotlari o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan 109,6 % ga ko‘paygan.

### **Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 340,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 2,3 % ni) tashkil etganligi kuzatildi.

Bunda 2019 yil yanvar-aprel oylarida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan maxsulotlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,7% ga ko'paygan.

### **Iste'mol tovarlarni ishlab chiqarish**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'mol tovarlari va xizmatlar bozorini rivojlantirish hamda takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida joriy yilning yanvar-aprel oylarida Toshkent shahridagi sanoat korxonalarini tomonidan 6924,5 mlrd.so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarildi va 2018 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,7 % ni tashkil etdi.


#### **2019 yilning yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish**

#### **hajmi va o'sish sur'atlari, % da**



Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 1889,2 mld. so‘mga etkazilib, jami iste’mol tovarlaridagi ulushi 27,3 %, nooziq ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 4779,3 mld. so‘m, jami iste’mol tovarlaridagi ulushi 69,0 %, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish 256,1 mld. so‘m hisoblanib jami iste’mol tovarlaridagi ulushi 3,7 % tashkil etdi.


### 2019 yilning yanvar-aprel oyida tumanlarning jami iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Toshkent shaxar iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmida eng kup ulush Yashnobod tumani (shahar iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining (12,0 % ulushini), Olmazor (11,9 %), Chilonzor (11,0 %) va Sirg‘ali (10,0 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Shu bilan birga eng kam ulush Bektemir (6,3 %) tumani, Yunusobod (7,1 %) va Yakkasaroy (7,5 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**2019 yilning yanvar-aprel oylarida hududlarda iste'mol tovarlarni  
ishlab chiqarish hajmi (%, da)**




Shu o'rinda iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda eng yirik o'sish suratlari Yashnobod tumani (110,9%), Bektemir tumani (109,5 %) va Yakkasaroy tumanlarida (108,9) kuzatilgan.

Eng kam o'sish sur'atlari esa Mirzo Ulug'bek tumani (105,4%) va Mirobod tumani (106,0%).

### Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi

Toshkent shahrida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Mirobod tumani (Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmining 14,5 % ulushini ), Yashnobod tumani (13,7 %), Mirzo Ulug‘bek tumani (10,7 %), Olmazor tumani (10,0%) va Shayxontohur tumani (9,6 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

#### 2019 yilning yanvar-aprel oylarida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Shuning bilan birga eng kam ulush Yakkasaroy ( 5,1 %), Uchtepa ( 5,6 %), Bektemir ( 7,0 %), tumanlariga to‘g‘ri keladi.


### Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-aprel oylarida Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulush – 65,3 % ni tashkil etgan.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Uchtepa tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 92,4 %), Yakkasaroy (90,9%), Olmazor (87,3%) va Yunusobod (85,9 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Mirobod (31,5 %), Shayxontoxur (48,8%) va Mirzo Ulug'bek (53,8 %), tumanlarida kuzatildi.

### Hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, % da.



**Toshkent shahar statistika boshqarmasi  
Sanoat statistikasi bo'limi**

Aloqa telefon: (0371) 230-88-16